

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHAMMAD TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladi. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Aytmuratov B.K.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada aktyorlik san’atida rol yaratish uslubiylati orqali aktyorning ijodiy individualligini shakllantirish masalalari yoritiladi. Muallif Stanislavskiy tizimining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish orqali zamonaviy teatr aktyorining rolga yondashuvi, ichki psixologik holatlarni ifodalashda individ sifatida namoyon bo‘lish jarayonini ochib beradi. Maqolada shuningdek, aktyorlik maktablari, o‘zbek va jahon teatr tajribasi asosida misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: aktyor, rol, uslubiylat, Stanislavskiy tizimi, teatr san’ati, ijodiy individ, obraz, emotsional xotira, sahna.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования творческой индивидуальности актера посредством методологии создания ролей в актерском искусстве. Анализируя теоретические и практические аспекты системы Станиславского, автор раскрывает подход современного театрального актера к роли, процесс проявления индивида в выражении внутренних психологических состояний. В статье также приводятся примеры, основанные на опыте актерских школ, узбекского и мирового театра.

Ключевые слова: актер, роль, стиль, система Станиславского, театральное искусство, творческий индивид, образ, эмоциональная память, сцена.

Annotation: This article explores the formation of an actor's creative individuality through the methodology of role creation in acting. By analyzing the theoretical and practical aspects of Stanislavsky's system, the author reveals the approach of the modern theater actor to the role, the process of manifestation as an individual in the expression of internal psychological states. The article also provides examples based on the experience of acting schools, Uzbek and world theater.

Keywords: actor, role, methodology, Stanislavski system, theatrical art, creative individual, image, emotional memory, stage.

Kirish. San’at – bu nafosat timsoli, u insonni ma’rifat sari yetaklovchi vosita, ayni paytda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan kuchdir. Aktyor esa ana shu tarbiya g‘oyalarini xalq orasida yoyuvchi, uni targ‘ib qiluvchi shaxs sifatida

sahnaga chiqadi. Tarbiyachi deganda esa, ko‘z oldimizga avvalo bizga dastlab savod o‘rgatgan, qo‘limizga qalam tutqazgan bilimdon ustoz yoki o‘qituvchi keladi. Agar aktyor ham shu kabi tarbiyachi vazifasini bajarishi kerak bo‘lsa, u holda bu mas‘uliyatli rolga munosib bo‘lish uchun nimalarga amal qilishi lozim?

Asosiy qism: Aktyorlik san‘ati – o‘z mazmun-mohiyati jihatidan adabiyot va musiqa san‘atiga yaqin turuvchi soha bo‘lib, san‘atkor doimiy ravishda mutolaa bilan shug‘ullanishi, bilim va saviyasini oshirib borishi zarur bo‘ladi. Har qanday obrazni gavdalantirish, monologni mazmunli ifoda etish yoki ariyani hissiyot bilan ijro qilish uchun, eng avvalo, sahnalashtirilayotgan asarni chuqur tahlil qilish talab etiladi. Dramaturgik asarning mazmuni, voqealar rivoji, tarixiy fon va psixologik muhit – bularning barchasi pyesa orqali ochiladi. Unda qahramonlarning xarakter xususiyatlari, ichki kechinmalari, fikrlash doirasi, ruhiy iztiroblari va orzu-umidlari o‘z ifodasini topadi.

“Namoyish etish san‘ati” tarafdorlari esa sahna qonuniyatlariga tayanib, tashqi shakl, harakatlarning jozibadorligi, ayniqsa tomoshaboplikka alohida urg‘u berishadi. Ular bunday yondashuv orqali real hayotdan, ya‘ni realizmdan biroz yiroqlashib, tomoshabinni jamiyatdagi og‘riqli haqiqatlardan chalg‘itishga intilishadi. Bunday san‘atga erishish uchun ular mashg‘ulotlar chog‘ida aktyorlardan rolga chuqur kirib, his-tuyg‘ularni samimiy va haqqoniy tarzda ifoda etishni talab qiladilar.

Barcha rollardagi tuyg‘ular va ular bilan bog‘liq harakatlar aniqlanib, shakllangach, rejissyor tomonidan mustahkamlanadi. Erishilgan ijodiy natija keyingi jarayonlarda aynan shu ko‘rinishda bajarilishi lozim deb belgilanadi va bu harakatlar mushaklar xotirasiga singib, tomoshabinga aniq namoyon etiladi. Repetitsiyalar davomida aktyor o‘z kechinmalarini, ya‘ni “aktyorlik tuyg‘usi”ni his-tuyg‘u va mushaklar xotirasida saqlab qoladi, buning natijasida esa aktyor mazkur holatni yangi kechinmasiz ham takrorlashi mumkin bo‘ladi.

Biroq “namoyish etish san‘ati”ning estetik yondashuvidan qoniqmagan Stanislavskiy bu bosqichdan ham yuqoriroq darajani izlay boshlaydi – ya‘ni, har bir spektaklda “qayta kechinish”, ya‘ni har galgi ijroda yangi tuyg‘ularni boshdan kechirish zaruratini ilgari suradi. Buning uchun esa aktyorning ixtiyorida har doim “injiq ilhom” tayyor holatda bo‘lishi kerak. Tomoshabinga chinakam estetik ta’sir o‘tkazish uchun aktyorda ijodiy hissiyot – “ijodkorlik tuyg‘usi” puxta tarbiyalangan bo‘lishi lozim edi. Bu esa tomoshabinning qalbi va ehtirolariga chuqur kirib borish imkonini yaratadi.

Havaskorlar orasidan saralab olingan bo‘lajak aktyor ilk qadamlardan oq ijodiy tuyg‘u va irodani to‘g‘ri yo‘naltirishi kerak. Aynan shunda u sahna san‘ati

talablarini ijodkorlik nuqtai nazaridan o'zlashtira oladi. Mazkur hunar sirlarini chuqur anglagan shaxsgina keyingi bosqichga – dramaturg va rejissyor tomonidan belgilangan harakatlarni sahnada aniq ijro eta oladigan aktyorlik darajasiga ko'tariladi.

Bunday ijrochi – aktyorlik tuyg'usini egallab, teatr san'atining asosiy elementlaridan biri bo'lgan “akt”, ya'ni harakatni samarali bajara oladi. U sahnadagi personajning ichki motivatsiyasini rivojlantirib, dramatik vaziyatlar (perepitiya) orqali yechimga olib kelish mahoratini o'zlashtiradi. Ana shu ko'nikmaga ega bo'lgan ijodkor – harakat bajaruvchi, ya'ni to'laqonli aktyor maqomiga ega bo'ladi. Chunki havaskorlikdan professional aktyorlik darajasiga yetishish uzoq, murakkab va izchil mehnat talab etadigan bosqichli jarayondir.

Stanislavskiy ana shunday aktyorlik maqomiga erishgan ijrochilarni evolyutsion taraqqiyot nuqtai nazaridan uch bosqichga ajratadi.

Birinchi bosqich - aktyorlik tuyg'usiga tayangan ijro.

Ikkinchi bosqich - ijodkorlik tuyg'usiga asoslangan ijro.

Uchinchi bosqich - san'atkorlik tuyg'usiga yetgan, yuqori badiiy darajadagi ijro.

Bu uch daraja o'rtasidagi farqlarni anglash va ular asosida nazariy tizim yaratish faqatgina Stanislavskiyga nasib etdi. Aynan shu tahliliy tafakkur orqali u “kechinma san'ati” deb ataluvchi aktyorlik sistemasi asoslarini yaratdi. U aktyorlik san'atini dialektik rivojlanishga asoslangan, bosqichma-bosqich yuksalib boruvchi ijodiy jarayon sifatida qaror toptirdi.

Quyida ushbu uch bosqichning xususiyatlarini izohlaymiz:

1. Aktyorlik tuyg'usi

Bu - aktyorning har bir spektaklga tayyor turuvchi hunarmandlik darajasidagi ko'nikmasidir. “G'amxo'r ko'nikmalar” deb ataluvchi bu usullar aktyorning mushaklar va his-tuyg'ular xotirasiga singib ketgan shtamlar asosida har bir rolni namoyish etish imkonini beradi. Mohirona ijroda kechagi holatlar va tuyg'ular o'zgarishsiz takrorlanadi. Bunday aktyorlar odatda ilhomga suyanib yashaydilar. Ammo ilhom - injiq tuyg'u bo'lib, har doim aktyorning ixtiyorida bo'lavermaydi. Ilhomsiz kunlarda aktyorni “g'amxo'r hunar” shtamlari qutqaradi. Tomoshabinga ilhomsiz ijro baribir yetib boradi, lekin aktyorning o'zi spektakl yakunida “yana o'xshamadi” degan ichki norozilikni his qiladi.

2. Ijodkorlik tuyg'usi

Bu daraja - ilhomni har doim faol holatda ushlab turishga va uni rolga bo'ysundirishga qodir aktyorlar tomonidan egallanadi. Bunday aktyor har bir spektaklda rolni qayta boshdan kechiradi, har safar yangidan kechinadi va bundan

zavq oladi. Ijodkor aktyor voqeani aynan shu lahzada, shu joyda, hozir, birinchi marta yuz berayotganidek tasavvur qiladi va jonli muloqotni saqlab qolishga intiladi. Uning bu harakati nafaqat o'zi, balki partnyorlari va tomoshabinlar tomonidan ham seziladi. Teatrda kelgan tomoshabin aslida ana shu jonli muloqot va real kechinmalarni tomosha qilish uchun kelishini aktyor yaxshi anglaydi.

3. San'atkorlik tuyg'usi

Bu - ijodkorlik tuyg'usi puxta shakllangan, yuksak ma'naviy-axloqiy qiyofa, keng badiiy tafakkur va chuqur yaratuvchanlik salohiyatiga ega aktyorlar yetib boradigan eng oliy darajadir. Bunday aktyorlar tomonidan yaratilgan sahnaviy obrazlar milliy madaniyat va ma'naviyatning ajralmas bo'lagiga aylanadi. Ularning ijodi namunaviy ahamiyat kasb etib, avlodlarga meros sifatida qoldirilishi mumkin. San'atkorlik tuyg'usi ijodkorning vijdoni bilan uyg'unlashadi. Aynan shu vijdon uni ortga, ya'ni faqat hunarmandlik darajasiga qaytib tushishdan, tomoshabinni aldaydigan yuzaki ijrodan saqlaydi.

Bu daraja - Stanislavskiyning orzusi va uning yaratgan tizimining eng yuksak, ideal maqsadi edi.

Aktyorning rol ustidagi izlanishlari - san'atkorlik kamolotining asosi.

Aktyorning sahna obrazini yaratishdagi mustaqil izlanishlari repetitsiya jarayoni uchun ajratilgan vaqtga nisbatan bir necha bor ko'proq bo'lishi shart. Bu esa aktyorning professional darajada shakllanishida, uning mahorat va iqtidorini to'liq namoyon qilishida beqiyos ahamiyatga ega. Afsuski, ko'plab aktyorlar bu talabga javob bera olmaydilar. Ba'zilarining dangasaligi, boshqalarning esa rejissorsiz ishlay olmaslik kabi sabablar bunga to'sqinlik qiladi. Ayrim hollarda esa aktyorlar uy sharoitida rol ustida qanday ishlash kerakligini bilmasliklarini bahona qiladilar. Natijada, ular "uyda ishlash" deganda, faqatgina rol matnini ohang berib o'qish, o'z-o'zi bilan yoki sherigi bilan oddiy bahs-munozara tarzida mashg'ulot o'tkazishni tushunadilar. Bunday yondashuv esa aktyorlik san'atidagi eng muhim bo'g'in – sahnadagi chinakam ijodiy izlanishlarga g'ov bo'lishi mumkinligini tushunmaydilar.

Avvalo, spektaklni sahnalashtirishdan ilgari rejissor va ijodiy jamoa bilan birgalikda olib boriladigan chuqur mantiqiy tahlillar, stol atrofidagi o'qishlar asosida pyesaning g'oyaviy yo'nalishi, dramatik tuzilmasi, sahnalashtirishdan ko'zlangan oliy badiiy va ma'naviy maqsadlar aniqlab olinishi lozim. Aktyor, o'z rolini pyesa doirasidagi umumiy mazmun va g'oya bilan uyg'unlikda tushunmasdan turib, mustaqil ishlashga kirishmasligi kerak. Boshqacha aytganda, ijodiy jarayon boshlanishidan oldin aktyor o'z-o'ziga aniq savol qo'yishi va unga javob topishi kerak: shu rolni sahnalashtirayotgan spektaklda nima uchun

o'ynayman?, mening obrazim umumiy kompozitsiyada qanday o'ringa ega? Shundagina aktyor kechinmalar orqali jonli muloqotga kirishib, chinakam ijodiy transformatsiyaga erisha oladi.

Shubhasiz, “aktyorning ijodiy tuyg'ularini to'g'ri yo'naltirish, shakllantirish va tarbiyalash - sahna san'atining eng muhim metodik asosidir” [11]. Bu borada XX asrning buyuk sahna ustasi, sahna amaliyotida katta tajriba orttirgan rejissor va pedagog Konstantin Stanislavskiyning qarashlari alohida o'rin tutadi. U aktyorning ijodiy holati - “kechinma san'ati” orqali yuzaga chiqishini, bunda jonli muloqot jarayonida tug'iladigan tabiiy tuyg'ular, ichki holatlar va harakatlar uyg'unligi zarurligini ta'kidlagan. Stanislavskiyga ko'ra, aktyor obrazni yaratishda o'zining ichki psixologik holati bilan tashqi jismoniy harakatlarini mutanosib va bir butun holatda olib borishi shart.

Aynan ana shu uyg'unlik orqali dramatik asarning g'oyasi va spektaklning ma'naviy mohiyati tomoshabinga chuqur va ta'sirchan shaklda yetkaziladi. Aktyorlar o'rtasidagi samimiy, ichdan chiqqan muloqot, sahnadagi tuyg'u almashinuvi - teatr tomonidan ilgari surilayotgan g'oya va qarashlarga tomoshabinni hamdard etadi. Har bir obrazning nozik kechinmalari, ruhiy iztiroblari, ichki ruhiy to'lqinlari tomoshabin qalbiga yetib borsa, undagina ular sahnadagi voqealarga befarq bo'lmaydi. Aks holda, teatr san'ati asta-sekinlik bilan o'z badiiy kuchini yo'qota boradi, tomoshalar esa sathiy, yengil-elpi, ko'ngilochar tus olib, hunarmandchilik darajasiga tushib qoladi.

Stanislavskiy sahna san'ati qonuniyatlarini tabiatning o'zi belgilab bergan yagona tizim deb hisoblaydi. U yaratgan “sistema” ilmiy asoslangan, hayotiy qonuniyatlarga tayangan, tajribaviy jihatdan isbotlangan metodik asos bo'lib, u Moskva Badiiy teatri sahnasida faoliyat yuritgan mashhur aktyorlar, yosh studiyachilar, Vaxtangov, Meyerxold kabi taniqli rejissyorlar tomonidan qo'llanilgan. Bu tajriba natijasida tomoshabinni larzaga solgan, ma'naviy va g'oyaviy yuksaklikka ega spektakllar yuzaga kelgan. Eng muhim jihati - Stanislavskiy aktyorlik iste'dodining faqat “ilohiy ilhom” yoki “takrorlanmas iqtidor”ga asoslangan degan fikrlarni inkor etadi. Unga ko'ra, qobiliyatli inson o'z ustida mehnat qilsa, tabiat qonunlaridan oqilona foydalansa, unda chinakam ijodiy tuyg'ular shakllanadi va bu tuyg'ular uni san'atkorlik darajasiga ko'taradi.

Shunday qilib, aktyor sahnada jonli muloqotni amalga oshirishi uchun o'z tabiatini zo'riqtirmasdan, berilgan shart-sharoit doirasida mantiqan asoslangan, izchil, maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni bajarishi zarur. Stanislavskiy aynan “berilgan shart-sharoit” atamasini o'z sistemasining markaziy tamoyiliga aylantirgan. U aktyorning ruhiy va jismoniy holatini bir butun qilib ishga soluvchi

komponentlarni “ijodiy elementlar” deb atagan. Bu elementlar quyidagilardan iborat:

Maqsadga yo‘naltirilgan diqqat va konsentratsiya;
Sezgi organlari orqali qabul qilish, idrok etish va baholash;
Ichki tasavvur va hissiy xotira;
Sahnaviy shart-sharoitlarni tasavvur qilish qobiliyati;
Sahnadagi voqelik bilan emotsional aloqani o‘rnatish;
Harakatlar va kechinmalar izchilligi;
Sahnadagi voqelikni chin dildan his qilish;
Ishonch va tabiiy ifoda;
Obraz istiqbolini his qilish;
Fikrli va ongli harakat;
Tempo va ritmni anglash;
Sahnaviy istak va ichki motivatsiyani shakllantirish;
Ehtirolarni uyg‘otish va ularni boshqara olish;
Mushaklar erkinligi va gavda ifodasi;
Ovoz ustidan boshqaruv;
To‘g‘ri talaffuz va aniq fikr ifodasi;
So‘z bilan emotsional ta’sir ko‘rsatish;
Obraz xarakterini his etish va namoyon etish.

Bu elementlar jamlanmasi aktyorni sahnada tabiiy, hayotga yaqin harakatga, chinakam badiiy ijodga olib keluvchi tuyg‘ular tizimini tashkil etadi.

Maqsad – zamonaviy sahna san’ati vakillarida, xususan, yosh aktyorlarda “kechinma san’ati” mezonlari asosida rol ustida doimiy va tizimli ishlash malakasini shakllantirishdan iborat edi. Stanislavskiyning sistemasiga asoslangan, adabiyotlarda mukammal ifodalangan bosqichlar quyidagicha tartiblangan:

Birinchi tom – *“San’atdagi hayotim”* deb nomlanib, unda muallif “namoyish etish san’ati”ni tanqidiy tahlil qiladi va unga qarama-qarshi ravishda “kechinma san’ati”ning nazariy asoslarini yoritadi. Shuningdek, bu taqqoslash orqali Stanislavskiy o‘z tizimining ustunliklarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Ikkinchi tom – *“Aktyorning kechinma san’ati asosida o‘z ustida ishlashi”* deb nomlanib, bu bosqichda aktyorning oddiy sahna tuyg‘ularidan ijodiy kechinmaga, ya’ni yuqori darajadagi san’atkorlik tuyg‘usiga ko‘tarilishi uchun maxsus mashqlar majmuasi tavsiya etiladi. Bu mashqlar yordamida har bir spektakl davomida aktyor o‘z obraziga qayta kiradi, uni chuqur his etadi va jonli muloqotga erishadi. Bu nafaqat nazariy qarashlar, balki amaliy yo‘riqnomalarni ham o‘z ichiga oladi.

Uchinchi tom – *“Aktyorning rolni o‘zlashtirish, ya’ni qiyofa yaratish jarayonida o‘z ustida ishlashi”* degan nom ostida e’lon qilingan bo‘lib, bunda aktyorning gavda orqali ifoda imkoniyatlarini oshirish, ovoz va nutq apparatini mukammallashtirish masalalari yoritiladi. Nafas olish texnikasi, ovozni boshqarish, artikulyatsiya, diksiya, to‘g‘ri talaffuz kabi elementlar orqali aktyorning so‘z orqali hamkoriga va tomoshabinlarga ta’sir o‘tkazish mahoratini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi. Har bir personaj uchun zarur bo‘lgan tana harakati va nutq uyg‘unligiga erishish orqali jonli muloqot imkoniyati kengayadi.

To‘rtinchi tom – *“Aktyorning rol ustida ishlashi”* deb nomlanib, u ijodiy tuyg‘ulari puxta shakllangan aktyorning butun ichki dunyosini – ruhiy holati va jismoniy harakatlarini, muallif bergan berilgan shart-sharoitlar asosida, maqsadga yo‘naltirilgan holda faol va izchil tarzda harakatlantirish masalasiga bag‘ishlanadi. Bu murakkab ijodiy jarayonning nazariy asoslari birinchi tomda bayon etilgan bo‘lib, ikkinchi va uchinchi jildlarda keltirilgan amaliy mashqlar bilan mustahkamlangan.

To‘rtinchi tomda aktyorning sahna harakati uchun zarur bo‘lgan uch asosiy tayanch – aql, iroda va hissiyot uyg‘unligi tahlil qilinadi. Stanislavskiy ushbu uyg‘unlikka qanday erishish mumkinligini sahna asarining xatti-harakat tahlili, oliy maqsad, yetakchi harakat, sahnadagi kurashni kuchaytiruvchi “qarama-qarshi harakat” tushunchalari orqali izohlaydi. Bundan tashqari, ongli harakatdan ongostilik darajasidagi tabiiy holatga o‘tish – aktyor san’atining chinakam yuksak bosqichi sifatida qoraladi.

Rol ustida ishlash jarayonida spektaklning **oliy maqsadini** hamda har bir personajning **yetakchi xatti-harakatini** to‘g‘ri belgilash – bu nafaqat sahnadagi umumiy ijodiy yondashuvga asos bo‘ladi, balki butun jamoaning g‘oyaviy yetukligini, ichki intilishini, ma’naviy darajasini va badiiy fikr teranligini ifodalovchi mezonga aylanadi.

Bugungi kunda har bir san’at ta’lim muassasasi oldida ikki muhim vazifa turadi:

Talabani ijodkor shaxs sifatida shakllantirish;

Talabaning ichki salohiyatini ochib berish.

Birinchi vazifa – bo‘lajak san’atkor shaxsini siyosiy-ijtimoiy qarashlar, intizom, ma’naviyat va mafkuraviy yetuklik asosida tarbiyalash orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi vazifa esa – professional tayyorgarlik vositalari orqali talaba ongida **ijodkor shaxs** tuyg‘usini shakllantirish bilan ro‘yobga chiqadi.

Aktyorlik mahorati bo‘yicha o‘tkaziladigan imtixon – mohiyatiga ko‘ra – nafaqat aktyorlik san’atini, balki unga yondosh barcha nazariy va amaliy fanlar

bo'yicha ham sinov vazifasini o'taydi. Chunki badiiy obrazni yaratish jarayonida talaba o'zining ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama namoyon etadi.

Afsuski, o'quv jarayonida talabalar nazariy fanlarga yetarli darajada e'tibor qaratmaydilar. Bunday holat yuzaga kelishining sabablari ko'p hollarda aynan pedagoglarning faoliyatida namoyon bo'ladi. Mashg'ulotlarni olib borayotgan amaliy o'qituvchilar talabalarga nazariy bilimlarning nechog'lik zarur va ajralmas jihat ekanligini to'liq tushuntirib bera olmaydilar. O'z navbatida, nazariy fanlardan dars beruvchi pedagoglar ham nazariyaning amaliyot bilan uzviy bog'liqligini yetarlicha asoslab bera olmayaptilar.

Ko'p yillik teatr san'ati tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, aktyorning tashqi qiyofasiga mos keluvchi obraz sahnada o'rtacha darajadan yuqoriga ko'tarila olmaydi. Buning sababi nimada? Ma'lum bo'lishicha, tomoshabinga sahnaviy ijodiy g'oyani yetkazish uchun, shunchaki iqtidorli bo'lishning o'zi kifoya emas. Buning uchun aktyor, eng avvalo, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan yetuk, chuqur intellektual salohiyatga ega, har tomonlama tayyorgarlik ko'rgan, kasbiy jihatdan pishgan shaxs bo'lishi kerak.

Sababi shundaki, ijodkor san'atkor avvalo obraz orqali tomoshabinga uzatadigan g'oyani o'z tafakkurida anglab yetmog'i lozim. Bu g'oya aktyorning ongi va qalbidan o'tib, siymo shaklida namoyon bo'lgandagina samimiy ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Demak, tashqi ko'rinish muhim bo'lishiga qaramasdan, o'sha ko'rinishga mos fikr va tafakkur boyligi ham xuddi suv va havodek zarurdir.

Bo'lajak aktyorlarga ta'lim berish jarayonida, ikki qarama-qarshi qutbga – amaliy va nazariy bilim beruvchi o'qituvchilarga muhim vazifa yuklanadi: ular o'z sa'y-harakatlari bilan talabalar ongida ushbu ikki yo'nalishni – **nazariya va amaliyotni** – sahna ijodi maydonida bir-biriga yaqinlashtirish, sintezga keltirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmog'i lozim.

Xulosa. Aktyorlik san'ati – bu nafaqat sahnadagi texnik mahorat, balki ichki tafakkur, g'oyaviy yuksaklik va ruhiy kechinmalarni ifoda etish san'atidir. Konstanstin Stanislavskiy tomonidan yaratilgan "Kechinma san'ati" konsepsiyasi bugungi teatr ta'limida ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu tizim aktyorning o'z ustida doimiy ishlashi, kechinmalar orqali obraz yaratishi va jonli muloqotga kirisha olishi uchun asosiy tamoyillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Stanislavskiyning to'rt jildlik tizimida aktyorlik ijodining barcha nazariy va amaliy jihatlari chuqur asoslab berilgan bo'lib, har bir bosqichda aktyorning fikriy, ruhiy va jismoniy uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Sahna ijodida obraz yaratish jarayoni aktyordan tafakkur, iroda va hissiyot uyg'unligini talab qiladi. Bu esa o'z navbatida, aktyorning sahnadagi harakatlarini

faqat tashqi harakat sifatida emas, balki ichki kechinma orqali shakllangan tabiiy holat sifatida namoyon etishni zarur qiladi. Spektaklning umumiy g'oyaviy yo'nalishi, har bir personajning yetakchi xatti-harakati va oliy maqsadini aniqlash – bu sahna asarining badiiy samaradorligini belgilovchi omillardir.

Bugungi teatr ta'limida eng muhim vazifalardan biri – talabalarda ijodkor shaxs sifatida shakllanishi, ularning ichki layoqati va san'atga bo'lgan munosabatini to'g'ri yo'naltirishdir. Bu ikki yo'nalish – siyosiy-ma'naviy tarbiya va professional tayyorgarlik – aktyorlik mahoratini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali aktyor shaxsining har tomonlama yetuk shakllanishiga zamin yaratiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aktyorning tashqi qiyofasi rolga mos tushsa-da, agar ichki g'oyaviy tafakkur va sahna madaniyati yetishmasa, ijro ijodiy darajaga ko'tarila olmaydi. Shu sababli, aktyorlik ta'limi jarayonida ijodiy tafakkur, nutq madaniyati, sahna harakati va badiiy kechinma kabi ko'nikmalarni uyg'unlikda shakllantirish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy teatr ta'limi Stanislavskiy tizimining asosiy prinsiplariga tayangan holda, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, sahna nutqi va ijodiy tafakkur orqali talabaning ijodkor shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashga yo'naltirilishi lozim. Zero, bugungi san'atkor – bu faqat obraz ijrochisi emas, balki chuqur g'oyaviy-ijodiy tafakkur sohibi bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017-yil 4-avgust.
2. Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Bayandiyev T. Qaraqalpoq teatri tarixi. –Toshkent, 2011.
4. Баянди́ев Т. Театр и время. –Ташкент, – 2010. –132 б.
5. Bayandiyev T. San'at masalalari – teatrshunos nigohida. –Toshkent, – 2009.
6. Ansatbaev N. Teatr ha'm aktyor. –No'kis, 2020.
7. Allanazarov T. Qaraqalpaq taeatrinda milliy rejissuranin' qa'liplesiwi. –No'kis: Bilim, 1996. –126 b.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIWSHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN’ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARINDA MUZIKA SABAQLARINDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

